DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдуджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIYAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQRISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	



INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQRISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI

Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti assistent-o'qituvchisi

ORCID: 0009-0001-9703-4519

Xashimova Zuhraxon Kahramonovna

Farg'ona davlat texnika universiteti assistent-o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-3468-4957

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va logistika xarajatlarining mahsulot tannarxiga ko'rsatadigan ta'siri integratsiyalashgan yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot davomida nazariy manbalar, empirik ma'lumotlar va analitik-statistik metodlar asosida ishlab chiqarish-logistika jarayonlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Bowersox va Closs, Christopher, Ballou hamda Chopra–Meindl tomonidan taklif etilgan ilmiy konsepsiyalar asosida ishlab chiqarish va logistika xarajatlarining yagona tizim sifatida boshqarilishi tannarxni optimallashtirishning muhim omili ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, transport kechikishlari, ombor jarayonlarining samarasizligi va zaxiralarni boshqarishdagi nomutanosibliklar tannarxning sezilarli o'sishiga sabab bo'lmoqda. Matematik modellashirish, Pareto tahlili va ssenariy tahlili orqali aniqlanishicha, logistika bo'g'inlarini optimallashtirish mahsulot tannarxini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. O'zbekiston sanoat korxonalarida logistika infratuzilmasining yetarli rivojlanmagani, raqamlashtirish darajasining pastligi va ta'minot zanjiridagi uzilishlar integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Maqolada tannarxni pasaytirish, korxona raqobatbardoshligini oshirish va logistika tizimini yaxshilash bo'yicha amaliy takliflar ham berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan xarajatlari, ishlab chiqarish xarajatlari, logistika xarajatlari, mahsulot tannarxi, tizimli yondashuv, Pareto tahlili, modellashirish, ta'minot zanjiri, optimallashtirish.

Abstract. This article examines the impact of production and logistics costs on product cost through an integrated analytical approach. The study combines theoretical review, empirical data analysis, and analytical–statistical methods to assess the interdependence between production processes and logistics operations. Based on the conceptual frameworks proposed by Bowersox & Closs, Christopher, Ballou, and Chopra–Meindl, the findings confirm that managing production and logistics costs within a unified integrated system is a key factor in cost optimization. The results indicate that transportation delays, inefficient warehouse operations, and imbalances in inventory management significantly contribute to increased product cost. Mathematical modeling, Pareto analysis, and scenario analysis demonstrate that optimizing logistics activities can substantially reduce overall cost. For industrial enterprises in Uzbekistan, the integrated cost approach is particularly important due to underdeveloped logistics infrastructure, low levels of digitalization, and disruptions in supply chains. The article provides practical recommendations aimed at reducing product cost, enhancing operational efficiency, and improving enterprise competitiveness.

Key words: integrated costs, production costs, logistics costs, product cost, systems approach, Pareto analysis, modeling, supply chain, optimization.

Аннотация. В данной статье исследуется влияние производственных и логистических издержек на себестоимость продукции на основе интегрированного подхода. В ходе исследования проведён теоретический анализ научных работ, а также обработка эмпирических данных с использованием аналитико-статистических методов. На основе концепций, предложенных Bowersox & Closs, Christopher, Ballou и Chopra–Meindl, установлено, что управление производственными и логистическими издержками в рамках единой системы является ключевым фактором оптимизации себестоимости. Результаты анализа показывают, что задержки транспорта, неэффективность складских процессов и дисбаланс в управлении запасами существенно увеличивают себестоимость продукции.



Математическое моделирование, Pareto-анализ и сценарный анализ показали, что оптимизация логистических операций может значительно снизить себестоимость. Для промышленных предприятий Узбекистана интегрированный подход особенно актуален в связи с ограниченной логистической инфраструктурой, низким уровнем цифровизации и нестабильностью цепочек поставок. В статье представлены практические рекомендации по снижению себестоимости и повышению конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: интегрированные издержки, производственные издержки, логистические издержки, себестоимость продукции, системный подход, анализ Парето, моделирование, цепь поставок, оптимизация.

KIRISH

Zamonaviy sanoat iqtisodiyotida korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlash eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda mahsulot tannaxini shakllantiruvchi barcha jarayonlar, ayniqsa ishlab chiqarish va logistika xarajatlari markaziy o'rin tutadi. So'nggi yillardagi global iqtisodiy o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, xarajatlarni alohida tahlil qilish korxonaga to'liq va aniq iqtisodiy tasavvur bera olmaydi. Aksincha, ishlab chiqarish jarayonlari bilan logistika operatsiyalarining o'zaro bog'liqligi kuchayib borar ekan, xarajatlarni integratsiyalashgan holda o'rganish zaruriyati ortib bormoqda.

Logistika xarajatlarining ulushi sanoat korxonalarida yil sayin oshib borayotgani, transport kechikishlari, ombor jarayonlarining samarasizligi va xaxiralarni boshqarishdagi nomutanosibliklar umumiy tannarxga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Integratsiyalashgan xarajatlar tahlili korxonaga xarajatlarni faqat qismlar bo'yicha emas, balki yagona zanjir sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bowersox va Closs fikriga ko'ra, ishlab chiqarish-logistika tizimining yagona boshqaruv modeli xarajatlarni optimallashtirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi¹.

Mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, sanoat korxonalarida tannarxni pasaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish va resurslardan oqilona foydalanish kabi strategik maqsadlar aynan integratsiyalashgan yondashuv orqali samarali amalga oshiriladi. Christophening ilmiy qarashlariga ko'ra, korxonaning bozordagi ustunligi ko'p jihatdan uning ta'minot zanjirini qay darajada samarali boshqarganiga bog'liq bo'ladi². Shuning uchun ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini o'zaro bog'liq elementlar sifatida tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ishlab chiqarish va logistika xarajatlarining mahsulot tannarxiga ta'sirini integratsiyalashgan tahlil asosida o'rganish, xarajatlarning shakllanish mexanizmini aniqlash va ularni kamaytirishning samarali yo'llarini asoslab berishdan iborat. Mavzu ayniqsa O'zbekiston sanoat korxonalari uchun dolzarb, chunki ichki bozor talabining o'zgaruvchanligi, logistika infratuzilmasidagi muammolar, importga qaramlik darajasi hamda transport xarajatlarining yuqoriligi ishlab chiqarish tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli integratsiyalashgan xarajatlar tahlili mahalliy korxonalar uchun strategik boshqaruv vositasiga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini integratsiyalashgan holda tahlil qilish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Bowersox va Closs ta'minot zanjiridagi xarajatlarni integratsiyalashgan tahlil korxona samaradorligini oshirish imkonini berishini o'rgangan. Ular mazkur izlanishni ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini yagona tizim sifatida boshqarish orqali tannarxni kamaytirish ehtiyoji sabab amalga oshirgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xarajatlarni alohida bo'limlarda emas, balki uzviy tizim sifatida ko'rib chiqish korxona resurslaridan samarali foydalanish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Christopher tomonidan 2016-yilda amalga oshirilgan tadqiqotlarda logistika tizimining strategik ahamiyati yoritilib, xarajatlarni boshqarish orqali korxona raqobatbardoshligini oshirish masalalari tahlil etilgan. Uning fikricha, ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini integratsiyalashgan holda tahlil qilish mahsulot tannarxini aniq hisoblash va bozor talabiga tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, Ballou (2004), Chopra va Meindl (2019) kabi olimlar logistika jarayonlari va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni matematik modellashirish orqali o'rganib, xarajatlarni optimallashtirishning samarali yo'llarini aniqlagan. Ushbu tadqiqotlarning maqsadi ishlab chiqarish-logistika zanjiridagi samaradorlikni oshirish va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishdan iborat bo'lgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, modellashirish asosida xarajatlarni tahlil qilish korxona qarorlarining tezkor va aniq bo'lishiga xizmat qiladi.

1 Bowersox, D. J. & Closs, D. J. Supply Chain Logistics Management. McGraw-Hill, 2013.

2 Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management. Pearson, 2016.



Lambert (2014) tomonidan global ta'minot zanjirlarida integratsiyalashgan xarajatlar modeli o'rganilib, uning samaradorlikni oshirish va raqobat ustunligini yaratishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot maqsadi ishlab chiqarish–logistika zanjirini yagona tizim sifatida birlashtirgan holda xarajatlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqarish bo'lgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv korxonaga resurslardan samarali foydalanish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotchilar orasida Bowersox va Closs mazkur masalani eng mukammal va tizimli o'rganigan olimlar sifatida ajralib turadi, chunki ular xarajatlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan hamda amaliy yechimlarni taklif etgan.

O'zbekiston sharoitida ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini integratsiyalashgan holda o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nisbatan kam. Shu bois, mahalliy korxonalarda xarajatlarni integratsiyalashgan tahlil qilish orqali tannarxni pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, integratsiyalashgan xarajatlar tahlilining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga egaligi ushbu tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarish va logistika xarajatlarining mahsulot tannarxiga ta'sirini integratsiyalashgan yondashuv asosida o'rganish maqsad qilingan bo'lib, tadqiqotning metodologiyasi ilmiy-tadqiqotning nazariy, empirik va analitik-metodik asoslariga tayandi. Tadqiqot jarayoni quyidagi ilmiy metodlar majmuasiga tayanib olib borildi.

Birinchi navbatda ilmiy-nazariy tahlil metodi qo'llanildi. Bunda Bowersox va Clossning integratsiyalashgan xarajatlar tizimi haqidagi konsepsiyasi, Christopherning strategik logistika boshqaruvi haqidagi ilmiy qarashlari, Ballou, Chopra va Meindlning matematik modellashtrish bo'yicha ishlari chuqur o'rganildi. Nazariy tahlil mavzu doirasida shakllangan ilmiy qarashlarni umimlashtirish, ishlab chiqarish va logistika xarajatlarining o'zaro bog'liqligi hamda integratsiyalashgan yondashuvning ilmiy asoslarini aniqlash imkonini berdi. Qolaversa, empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarish va logistika xarajatlarining mahsulot tannarxiga ta'siri integratsiyalashgan yondashuv asosida tahlil qilindi. Tahlilning dastlabki bosqichi korxonalardan olingan empirik ma'lumotlarni tizimlashtirish va ularni struktura bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ldi. Nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish va logistika operatsiyalari o'rtasida kuchli funksional bog'liqlik mavjud bo'lib, buni Bowersox va Closs ta'minot zanjiri boshqaruvi doirasida ta'kidlab o'tganlar³. Tizimli yondashuv asosida o'tkazilgan tahlillar ishlab chiqarish jarayonlari va logistika elementlarining integratsiyalashgan boshqaruvi tannarx shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Statistik tahlil natijalari logistika xarajatlari tarkibida transport, ombor va zaxira bilan bog'liq xarajatlar eng katta ulushga ega ekanini tasdiqladi. Bu ilmiy manbalarda qayd etilgan global tendensiyalar bilan ham mos keladi, chunki logistika elementlarining tannarxdagi ulushi yuqoriligi Christopher tomonidan ta'kidlangan⁴. Tahlil davomida aniqlanishicha, aynan transport kechikishlari, zaxira darajasining me'yordan yuqoriligi va ombor jarayonlarining samarasizligi korxona tannarxining oshishiga asosiy sabab bo'lib xizmat qiladi. Mazkur holat Ballou tomonidan ishlab chiqilgan logistika xarajatlari modellari bilan uyg'unlikda bo'lib, ayniqsa logistika xarajatlarining umumiy xarajatlar ichidagi ustuvorligini tasdiqlaydi.

Tizimli yondashuv asosida qo'llangan Pareto tahlili natijasida xarajatlarning 80 foizi atigi asosiy logistika operatsiyalaridan shakllanishi aniqlandi. Bu esa Ballou va boshqa logistika olimlari tomonidan ilgari surilgan xarajat drayverlari haqidagi nazariyalar amaliy jihatdan ham tasdiqlanishini ko'rsatadi⁵. Shuningdek, ssenariy tahlili orqali ishlab chiqarish va logistika jarayonlaridagi o'zgarishlar mahsulot tannarxiga qanday ta'sir qilishi modellashtrildi. Turli ssenariylar tahlili natijasida transport yo'nalishlarini optimallashtirish, ombor jarayonlarini yaxshilash va zaxiralarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish tannarxning sezilarli qisqarishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Bu yondashuv Chopra va Meindl tomonidan taklif etilgan ta'minot zanjiri samaradorligi modelida ham alohida ta'kidlangan.

Integratsiyalashgan tahlil jarayonida aniqlanishicha, mahsulot tannarxining oshishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri — transport xarajatlarining beqarorligi va yetkazib berish zanjirlaridagi kechikishlardir. Transportdagi uzilishlar korxonalarda zaxiralarni ko'paytirish zaruratini yuzaga keltiradi, bu esa operatsion kapitalning muzlab qolishiga olib keladi. Zaxira darajasining me'yordan ortib ketishi tannarxning oshishiga

3 Bowersox, D., & Closs, D. (2013). *Supply Chain Logistics Management*. McGraw-Hill.

4 Christopher, M. (2016). *Logistics and Supply Chain Management*. Pearson.

5 Ballou, R. H. (2004). *Business Logistics Management*. Prentice Hall.



sabab bo'ladi, chunki ortiqcha zaxirani saqlash xarajatlari ham logistika xarajatlari tarkibiga kiradi. Bunda omborxona maydonini kengaytirish, saqlash sharoitlarini takomillashtirish, energiya sarfi, inventarizatsiya va eskirish kabi omillar qo'shimcha xarajatlarga olib keladi.

Christopher modeliga ko'ra, integratsiyalashgan yondashuvda zaxira hajmi optimallashtirilsa, umumiy tannarx 12–18 foizgacha kamayishi mumkin. Bu esa logistika xarajatlarining tannarxdagi ulushi qanchalik muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun ta'minot zanjiri barqaror bo'lishi lozim. Ta'minotdagi kichik uzilishlar ham ishlab chiqarishning to'xtab qolishiga, natijada bir birlik mahsulot tannarxining keskin oshishiga olib kelishi mumkin.

Chopra–Meindl konsepsiyasida logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi tannarx shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida qayd etiladi. Raqamli logistika tizimlarining joriy etilishi — masalan, WMS (Warehouse Management System), TMS (Transportation Management System), IoT sensorlari, RFID texnologiyalari — logistika operatsiyalari shaffofligini oshiradi, resurslardan foydalanish darajasini yaxshilaydi, transport marshrutlarini optimallashtiradi. Natijada, tannarx sezilarli darajada pasayadi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi samarasizliklar ham umumiy xarajatlarning ortishiga sabab bo'ladi. Masalan, texnologik jarayonlardagi uzilishlar, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmasligi, mehnat unumdorligining pastligi, ustama xarajatlarning yuqori darajada shakllanishi tannarxning ko'tarilishiga olib keladi. Ammo integratsiyalashgan modelda bu jarayonlar logistika tizimi bilan moslashtirilgan holda ko'rib chiqiladi. Masalan, ishlab chiqarish quvvatlari transportning kelish-ketish jadvali bilan uyg'unlashtirilsa, ishlab chiqarishdagi to'xtab qolishlar kamayadi, bu esa tannarxga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ballou tomonidan taklif etilgan "total cost" modeli ham integratsiyalashgan yondashuvning amaliy asosini tashkil etadi. Modelga ko'ra, xarajatlarni kamaytirish faqat bir yo'nalishdagi xarajatlarni qisqartirish emas, balki butun zanjirdagi umumiy xarajatlarning minimallashtirilishidir. Masalan, transport xarajatlarini kamaytirish maqsadida arzonroq transport turini tanlash ombor xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Bu holatda real iqtisodiy samaradorlik faqat logistika tizimi va ishlab chiqarish jarayonining o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tahlil qilinishidan kelib chiqadi.

Korxonalarda integratsiyalashgan tahlilning joriy etilishi yangi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Xususan, logistika va ishlab chiqarishni yagona platformada boshqarish, raqamli xarajat monitoringi, xarajat markazlarini qayta ko'rib chiqish, operatsion jarayonlar bo'yicha KPI ko'rsatkichlarini qayta shakllantirish kabi chora-tadbirlar mahsulot tannarxining pasayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Integratsiyalashgan tizimning afzalliklaridan biri shuki, xarajatlarda real vaqt rejimida nazorat qilinadi, shuningdek jarayonlar bo'yicha bashoratlash imkoniyatlari kengayadi⁶.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarish va logistika xarajatlarining mahsulot tannarxiga ta'siri integratsiyalashgan yondashuv asosida o'rganildi va tahlil natijalari ushbu yondashuvning nazariy hamda amaliy jihatdan yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatdi. Integratsiyalashgan xarajatlarda tahlili ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini alohida ko'rib chiqishdan ko'ra, ularni yagona tizim sifatida baholashning ancha samarali ekanini tasdiqladi. Bowersox va Closs, Christopher, Ballou hamda Chopra va Meindl tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar asosida olib borilgan tahlillar mahsulot tannarxining shakllanishida logistika xarajatlarining o'rni yuqori ekanini ko'rsatdi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, transport xarajatlardagi kechikishlar, ombor jarayonlaridagi samarasizlik, zaxira darajasining me'yordan yuqoriligi va logistika infratuzilmasidagi kamchiliklar umumiy tannarxning oshishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Pareto tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy xarajatlarning katta qismi aynan logistika operatsiyalariga to'g'ri keladi, bu esa korxonalarda optimallashtirish jarayonlarida logistika bo'g'inining ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Matematik modellash va ssenariy tahlili ushbu xulosani yanada kuchaytirib, transport va zaxira boshqaruvi jarayonlariga kiritilgan kichik o'zgarishlar ham mahsulot tannarxini sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligini aniqladi.

O'zbekiston sanoat korxonalarda integratsiyalashgan xarajatlarda yondashuvining to'liq joriy qilinmagani, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani va raqamlashtirish darajasining pastligi tannarxni nazorat qilishda qiyinchilik tug'dirayotgani aniqlandi. Shu sababli integratsiyalashgan yondashuvning joriy etilishi mahalliy sanoat korxonalari uchun nafaqat zarur, balki raqobatbardoshlikni oshirishning strategik sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini integratsiyalashgan holda boshqarish mahsulot tannarxini kamaytirish, korxona samaradorligini oshirish, ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlash va bozorda ustunlikka erishishning eng muhim ilmiy-amaliy mexanizmlaridan biridir.

6 Lambert, D. M. (2014). *Supply Chain Management: Processes, Partnerships, Performance*. SCM Institute.



Tadqiqot natijalariga asoslanib, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini kamaytirish hamda mahsulot tannarxini optimallashtirish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, korxonalar faoliyatida logistika xarajatlarning yuqori ulushga ega ekanini inobatga olgan holda transport, ombor va zaxira boshqaruvi jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va ularni optimallashtirish zarur. Transport yo'nalishlarini to'g'ri rejalashtirish, yuk tashish marshrutlarini optimallashtirish va yetkazib berish kechikishlarini kamaytirish mahsulot tannarxining sezilarli darajada qisqarishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bowersox, D. J. & Closs, D. J. *Supply Chain Logistics Management*. McGraw-Hill, 2013.
2. Christopher, M. *Logistics and Supply Chain Management*. Pearson, 2016.
3. Ballou, R. H. (2004). *Business Logistics Management*. Prentice Hall.
4. Lambert, D. M. (2014). *Supply Chain Management: Processes, Partnerships, Performance*. Supply Chain Management Institute.
5. Bowersox, D., & Closs, D. (2013). *Supply Chain Logistics Management*. McGraw-Hill.
6. Christopher, M. (2016). *Logistics and Supply Chain Management*. Pearson.
7. Ballou, R. H. (2004). *Business Logistics Management*. Prentice Hall.
8. Lambert, D. M. (2014). *Supply Chain Management: Processes, Partnerships, Performance*. SCM Institute.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>